



PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Muallif: To'rayeva Sayyora Sattorovna¹

Affilyatsiya: Surxandaryo viloyat pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrası katta o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14512176>

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizda sifatli ta'limni ta'minlash uchun malakali pedagog kadrlar zarurligi, O'zbekiston va AQSH pedagog xodimlarning kasb standartlari va zamonaviy o'qituvchilariga qo'yilgan talablar haqida, pedagog kadrlarni tayyorlashdagi yechimlar haqida, XXI asr ko'nikmalari, pedagog faoliyatning taqsimlanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, faoliyat, shakl, metod va vosita, kompetensiya, baholash, kasbiy rivojlanish va hamkorlik, tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida quyidagi vazifalar belgilangan:..” Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish” va pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o'qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish” .

Pedagogik kadrlar tayyorlash, ya'ni o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni ta'lim tizimining eng muhim jihatlaridan biridir. O'qituvchi sifatli ta'limning asosiy omili hisoblanadi va kelajak avlodning bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. Lekin bu yo'nalishda bir qancha muammolar mavjud. Quyida pedagogik kadrlar tayyorlashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari haqida batafsil ma'lumot keltiriladi.

Muammo: Nazariy va amaliy bilimlar o'rtasidagi tafovut

Ko'plab pedagogik dasturlar nazariy bilimlarga ko'proq e'tibor qaratib, amaliyotga yetarli darajada ahamiyat bermaydi. Bu esa yangi o'qituvchilarning sinf xonasida haqiqiy vaziyatlarda duch keladigan qiyinchiliklarni hal qilishga tayyor emasligini anglatadi. O'qituvchilar tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish va real vaziyatlarda tajriba orttirishga imkoniyat yaratish lozim. Talabalarni amaliyotga jalb qilish dasturlari, stajirovkalar, model darslar orqali ularga sinf xonasida to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'rgatish mumkin.

Muammo: Zamonaviy pedagogik va texnologik bilimlarning yetishmasligi

Ta'lim texnologiyalari tez rivojlanmoqda, lekin ko'plab o'qituvchi tayyorlash dasturlari ushbu yangiliklarni o'z ichiga ololmayapti. Natijada yangi o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Pedagogik dasturlarga zamonaviy texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarini kiritish, o'qituvchilarga kompyuter savodxonligi va boshqa zamonaviy ko'nikmalarni o'rgatish zarur. Bu borada maxsus seminarlar, kurslar va doimiy malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish muhim.

3. Muammo: Tajribali ustozlarning yetishmasligi

Ba'zi hududlarda tajribali va yuqori malakali o'qituvchilarning yetishmasligi yangi pedagoglarni tayyorlashda jiddiy muammolardan biri hisoblanadi.

Yangi o'qituvchilarni tajribali ustozlarga biriktirish tizimini yo'lga qo'yish zarur. "Ustoz-shogird" tizimi orqali yosh o'qituvchilar o'z sohasidagi tajribali pedagoglardan o'rganishlari mumkin. Bundan tashqari, uzoq hududlarda ishlashni tanlagan tajribali o'qituvchilar uchun maxsus rag'batlantirish dasturlarini yaratish mumkin.

4. Muammo: Motivatsiyaning pastligi

Pedagogik kadrlar orasida motivatsiya va ishga qoniqish darajasi past bo'lib, bu o'qituvchilik kasbiga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi. Past maosh, mehnat sharoitlarining qiyinligi va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi buning asosiy sabablaridir. O'qituvchilar uchun yaxshi moliyaviy va ijtimoiy ta'minot tizimini yaratish lozim. Rag'batlantiruvchi dasturlar, kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va salomatlik sug'urtasi kabi omillar motivatsiyani oshirishi mumkin.

5. Muammo: Maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash ko'nikmalarining yetishmasligi

Ko'pgina o'qituvchilar maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tmagan. Bu esa ta'limning inklyuzivligini ta'minlashga to'sqinlik qiladi.

Pedagogik dasturlarda maxsus ta'lim bo'yicha kurslarni majburiy qilish kerak. Bundan tashqari, inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni ishlab chiqish, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodikalari bo'yicha seminarlar o'tkazish lozim.

6. Muammo: Kasbiy rivojlanish va malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi

Ko'plab pedagoglar ish faoliyati davomida yangi bilim va ko'nikmalarni egallashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu ularning malaka oshirish imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog'liq. O'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish dasturlari, treninglar va sertifikatlash kurslarini muntazam ravishda o'tkazish zarur. Online kurslar va vebinarlar orqali ham kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Muammo: Pedagogik kadrlar uchun maqsadli yo'nalishlarning cheklanganligi

Pedagogik dasturlarda ixtisoslashgan yo'nalishlar, masalan, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) va san'at yo'nalishlarida maxsus tayyorgarlik yetishmaydi. Inson qobiliyatining bugun egallangan sarhadlari hali noma'lum bo'lgan davrlarda, maktabning vazifasi odamlarni savodli qilishdan, ularga bilim berishdan iborat bo'lgan.

Bugun esa har birimiz hayot tarzimiz, ishlashimiz va o'zaro munosabatimizni tubdan o'zgartirgan texnologik inqilob jarayoniga guvoh bo'ldik va bo'lmoqdamiz.. Bu

jarayon ko'lemi, maqsadi va murakkabligiga ko'ra, insoniyat shu vaqtgacha boshidan o'tkazgan o'zgarishlarga o'xshamaydi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda qanday muammo mavjud:

ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri bu kadrlarning yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi; o'qituvchilarni qabul qilishda qat'iy mezonlarning yo'qligi; ko'plab pedagoglar kasbiy rivojlanish va malaka oshirish bo'yicha zarur imkoniyatlardan foydalana olishmaydi; o'qituvchilarning BKM va kompetensiyalarini ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga va amaliyotiga qo'llamasligi, bu ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi; zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda pedagogik kadrlar uchun ko'plab maktablarda bu imkoniyatlar yetishmaydi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda qanday yechimlar mavjud:

o'qituvchilarni qabul qilishda qat'iy mezonlarni joriy etish; ularning malakasini baholash jarayonini oshirish.

Natijada, bugungi o'zgarishlarga moslashish, o'zgarishlarni boshlab berish uchun savodli bo'lishning o'zi kifoya qilmayapti. Bugun zamonaviy o'qituvchilarga quyidagi talablar qo'yilmoqda:

pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash; axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish; pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish; bo'shliqlarini aniqlash, fanga oid konferensiyalar va vibenarlarni, darsrtasiyalarni kuzatib borish kabi talablardir.

Har bir pedagog yuqoridagi talablar asosida o'z-o'zini rivojlantirib borsa, kadrlar tayyorlashdagi muammo va yechimlar bosqichma bosqich hal etiladi. Shuningdek boshqa davlatlar kabi O'zbekistonda ham maktaab o'qituvchisining kasb standarti belgilandi.

Siz bu standartlarni bilasizmi?

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisining 7 ta kasb standarti belgilangan b'lib, ular quyidagilardir: 1. O'quv jarayonini rejalashtirish; 2. Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim dasturini amalga oshirish); 3. O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish; 4. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish; 5. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash. Kasbiy rivojlanish va hamkorlik; 6. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish.

7. Hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik .

Zamonaviy dars tashkil qilishimizda, XXI asr ko'nikmalari ahamiyatgi molikdir. XXI asr ko'nikmalarini egallagan o'quvchi zamon talabidagi barkamol avlod, kelajagimiz quruvchi bo'lib etishadi. XXI asr ko'nikmalari (4K) to'rtta bo'lib ular kommunikativlik, kollobaratsiya, kreativlik va kretik fikrlashlardir. O'zbekistonda o'qituvchi faoliyati o'z mazmun-mohiyati bo'yicha kengaymoqda. Bugun tez tez tyutor, edvayzer, fasilitator va

moderator tushunchalari ta'lim tizminiga kirib keldi. Bu vazifalarning taqsimlanishi natijasida ta'lim samaradorligi yana oshishiga olib keladi.

Tyutor - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

Edvayzer - (advisor-fransuzcha —avisen—o'ylamoqll) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

Fasilitator - (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis–engil, qulay)- guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo'naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga erdam beradi. Ma'lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta'limda ushbu faoliyatlarning hammasini o'qituvchi bajaradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugunki kunda bir qator mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim tarbiya jaraenini samaradorligini kafolatlovchi interfaol metodlarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan kiritilmoqda. Quyida ta'lim amaliyotida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonidagi muammolarni hal etish va ularning yechimlarini amalga oshirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Bu esa kelajak avlod uchun mustahkam ta'lim tizimini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF 6108 –sonli farmoni, 2020- yil 20- noyabr

Prezident Shavkat Mirziyoev. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir" mavzusidagi ma'ruzasi, 2018- yil , 8-dekabr

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standarti, Toshkent, 2020
S.Turgunov, B.Daniyarov va bosh."O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish", 2012- yil. "Sano-standart" nashriyoti.

Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A., Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. T., Iste'dod, 2010 yil